

QASHQADARYO VILOYATIDA ONALAR VA BOLALAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH TIZIMIDAGI ISLOHATLAR

Raxmanova Nozina Esanovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
pedagogika universiteti magistri

[Tel:+998 906707028](tel:+998906707028)

E-mail: nozinarakhmanova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida mustaqillik arafasida va undan keyingi davrda onalar salomatligini muhofaza qilish tizimining holati va o'zgarishlari tahlil qilinadi. Arxiv hujjatlari va amaliy tajriba asosida o'sha davrdagi perinatal yordamdagi muammolar hamda bugungi kundagi islohotlar solishtirilgan. Natijalar sog'liqni saqlash tizimida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Onalar salomatligini muhofaza qilish, perinatal yordam tizimi, reproduktiv salomatlik, ona o'limi (maternal mortalitet), kamqonlik (anemiya), tibbiy patronaj, skrining tizimi, erta diagnostika, sog'liqni saqlash tizimi islohotlari, tibbiy xizmat sifati, Qashqadaryo viloyati, arxiv hujjatlari.

Аннотация: В данной статье анализируется состояние и изменения системы охраны здоровья матерей в Кашкадарьинской области в преддверии независимости и в последующий период. На основе архивных материалов и практического опыта сопоставляются проблемы перинатальной помощи прошлого и современные реформы. Результаты показывают значительное улучшение системы здравоохранения.

Ключевые слова: Охрана здоровья матерей, перинатальная помощь, репродуктивное здоровье, материнская смертность, анемия, медицинский патронаж, система скрининга, ранняя диагностика, реформы системы здравоохранения, качество медицинских услуг, Кашкадарьинская область, архивные документы.

Abstract: This article analyzes the state and changes in the maternal health care system in the Kashkadarya region during the pre-independence period and afterwards. Based on archival materials and practical experience, the study compares past perinatal care problems with modern reforms. The results show significant improvements in the healthcare system.

Keywords: Maternal health protection, perinatal care system, reproductive health, maternal mortality, anemia, medical patronage, screening system, early diagnosis, healthcare system reforms, quality of medical services, Kashkadarya region, archival documents.

Mustaqillik arafasidagi sog‘liqni saqlash tizimining real holatini yanada aniqroq tasavvur etish imkonini beruvchi muhim manbalardan biri arxiv hujjatlaridir. Arxiv hujjatlarida mustaqillik arafasida Qashqadaryo viloyatida onalar salomatligini muhofaza qilish tizimida mavjud bo‘lgan jiddiy muammolar aks etgan. Jumladan, 1991-yil 29-avgust kuni Qamashi tumanida tug‘ruq jarayonida ona o‘limi holati qayd etilgan bo‘lib, mazkur holat yuzasidan Qashqadaryo viloyati sog‘liqni saqlash bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijalariga ko‘ra, homilador ayol tibbiy kuzatuvdan yetarli darajada o‘tkazilmagani, tibbiyot muassasalari faoliyatida tashkiliy va nazorat mexanizmlarining sustligi aniqlangan¹.

Tekshiruv materiallarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, homiladorlik davrida ayolga surunkali kamqonlik tashxisi qo‘yilgan. Biroq, muntazam tibbiy nazorat amalga oshirilmagan. Tug‘ruq jarayoni uy sharoitida, tibbiy yordam ko‘rsatilmagan holda amalga oshgan. Shuningdek, feldsherlik-akusherlik punkti va tez tibbiy yordam xizmatlari faoliyatida ham jiddiy kamchiliklar mavjud bo‘lib, tez yordam chaqiruvi o‘z vaqtida qabul qilinmagan. Natijada tug‘ruqdan keyingi davrda kuchli qon ketish holati yuzaga kelib, ayol og‘ir ahvolda markaziy tuman shifoxonasiga yetkazilgan va klinik o‘lim holatida qayd etilgan.

¹ Qashqadaryo viloyat davlat arxivi (QVDA), C-193-fond, 1-ro‘yxat, 1234-yig‘ma jild, 261–262-betlar.

Mazkur holat mustaqillik arafasida qishloq hududlarida perinatal yordam ko'rsatish tizimi, tibbiy patronaj va tez tibbiy yordam xizmatlarida mavjud bo'lgan tizimli muammolarni yaqqol namoyon etadi. Bu holat keyinchalik mustaqillik yillarida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish sohasida amalga oshirilgan tub islohotlarning zaruriyatini tarixiy jihatdan asoslab beradi.

Arxiv hujjatlarida qayd etilgan tug'ruq jarayonida onaning vafoti va tizimli muammolarni ochib berishi bilan bir qatorda, amaliy tajriba ham shu muammolarning davomiyligini tasdiqlaydi. Shu maqsadda Qashqadaryo viloyati "Onalar va bolalar markazi"da uzoq yillardan beri ishlab kelayotgan bosh akusher-ginekolog Meyliyev Botir Islomovich ko'rsatmalari ham bunga yorqin misol bo'la oladi. *"Men mazkur tashkilotda ko'p yillardan beri akusher-ginekolog sifatida faoliyat yuritib kelaman. Tajribamga tayangan holda shuni aniq ayta olamanki, mustaqillikning dastlabki yillarida ham, hozirgi davrda ham homilador ayollar orasida kamqonlik eng ko'p uchraydigan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Tug'ruqning birinchi yoki keyingi bo'lishidan qat'i nazar, ko'plab ayollarda qon tahlillari natijasida gemoglobin va trombositlar miqdorining pastligi aniqlanadi. Amaliyotimda shuni kuzatganman-ki, kamqonlik va trombositlar yetishmovchiligi bo'lajak onalar salomatligiga bevosita ta'sir qiladi va tug'ruq jarayonida ham, tug'ruqdan keyingi davrda ham turli asoratlar xavfini oshiradi. Shu sababli homilador ayollarni erta ro'yxatga olish, ularning doimiy tibbiy nazoratini ta'minlash va profilaktik davolash ishlarini kuchaytirish muhim deb hisoblayman."* - deydi shifokor.

Shu bilan birga, Meyliyev Botir Islomovichning qayd etishicha, mustaqillikdan keyingi davrda homilador ayollar salomatligini saqlash va tug'ruq jarayonini xavfsiz tashkil etishda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Avvallari viloyatdagi ayollar maslahatxonalarida faqat **bitta oq-qora apparat** mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirda har bir shifoxonada 4–5 ta yangi ultratovush (UZI) apparatlari ishlarida. Shuningdek, **Dopler, KTG va kardiomonitorlar kabi zamonaviy texnikalar** joriy etilgan. Ushbu uskunalarda yordamida homilaning **pulsini, jinsini, kislorod yetib borishini va boshqa ko'rsatkichlarini** o'lchash imkoniyati mavjud. Bu esa homilador ayollarning erta

diagnostika qilish va tugʻruq jarayonini xavfsizroq tashkil etishga sezilarli hissa qoʻshmoqda.

Texnik va tashkiliy oʻzgarishlar bilan bir qatorda, mustaqillikdan keyingi davrda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tizimini mustahkamlash faqat mazkur sohani huquqiy va dasturiy jihatdan qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan muhim davlat qarorlari bilan ham izchil davom ettirildi. Xususan, 2008-yilda qabul qilingan “Bolalikdan nogiron tugʻilishning oldini olish uchun tugʻma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi toʻgʻrisida”gi PQ–892-sonli qaror onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish sohasida profilaktik yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan muhim huquqiy asos boʻldi. Ushbu qaror doirasida homilador ayollar va yangi tugʻilgan chaqaloqlarni erta skriningdan oʻtkazish, tugʻma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash tizimi shakllantirildi².

Mazkur siyosatning mantiqiy davomi sifatida, 2009-yil 13-aprelda qabul qilingan “Sogʻlom avlodni shakllantirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish boʻyicha qoʻshimcha choralar toʻgʻrisida”gi qaror esa mazkur yoʻnalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada kengaytirib, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qildi.

Davlat dasturlarining amaliy ijrosi doirasida, “2009–2023-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sogʻlom bola tugʻilishi, jismoniy va maʼnaviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi”³ doirasida, xususan, 2011–2015-yillar mobaynida qishloq joylarda yashovchi homilador ayollarga moddiy yordam koʻrsatish tizimi joriy etildi. Bu chora-tadbirlar homilador ayollarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning sogʻligʻini muntazam nazorat qilish va perinatal xavflarni kamaytirishga qaratildi.

² Karimov.I.A.Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi maʼruzasini oʻrganish boʻyicha oʻquv uslubiy qoʻllanma. -T.”Oʻqituvchi”, 2014. 73-bet.

³ I.A.Karimovning “2009-2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sogʻlom bola tugʻilishi, jismoniy va maʼnaviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. 1.7.2009

Mazkur islohotlarning samarasi xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgani 2011-yilda "Save the Children" xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan reytingda O'zbekistonning dunyoning 161 ta davlati orasida bolalar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha 10 ta yetakchi davlat qatoriga kiritilgani bilan tasdiqlanadi⁴. Bu holat respublikada sog'liqni saqlash sohasiga, xususan, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan siyosatning samaradorligini ko'rsatadi.

Davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar natijasida tibbiyot sohasining huquqiy asoslari mustahkamlanib, kadrlar salohiyati va moddiy-texnik baza sezilarli darajada yaxshilandi. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "2016–2020-yillarda O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi" orqali yangi bosqichga ko'tarildi.

Mustaqillikdan keyingi davrda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, so'nggi yillarda ushbu sohada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, 2017–2022-yillar davomida onalar o'limi ko'rsatkichi 1,5 baravarga, go'daklar o'limi esa 1,3 baravarga kamayishiga erishildi.

Mazkur qaror doirasida kam uchraydigan (orfan) va irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarni bepul dori vositalari, tibbiy buyumlar va maxsus oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimi joriy etildi.⁵ Shuningdek, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida bolalar anesteziologiya-reanimatsiya bo'limlari, kecha-yu kunduz faoliyat yurituvchi shoshilinch pediatriya postlari hamda poliklinikalarda bolalar bo'limlari tashkil etildi.

Qarorga muvofiq, barcha tibbiyot brigadalari tarkibiga qo'shimcha pediatriya hamshirasi va doya shtatlari ajratilib, homilador ayollar hamda tug'ish yoshidagi

⁴ Mustaqillik arafasida O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar zaruriyati. Azimova Maftuna Muhammadaminovna.6.4.2024-y.18-bet

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-6598641?ONDATE=08.09.2023%2000>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2023 yildagi PQ-296-son.

ayollarni zarur vitamin komplekslari, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda uning hududiy filiallari tashkil etilib, homilador ayollar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarni erta diagnostika qilish, skriningdan o'tkazish va yuqori texnologik tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash tizimi yanada takomillashtirildi.

Ushbu chora-tadbirlar mustaqillik arafasida mamlakatda mavjud bo'lgan perinatal yordam tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, Qashqadaryo viloyatida ham onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish xizmatlarining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

So'nggi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan islohotlar keyingi davrda aniq institutsional o'zgarishlar bilan davom ettirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-sentabrdagi "Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-296-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 15-sentabrdagi 230-sonli buyrug'iga asosan Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filiallari faoliyatini tashkil etish belgilandi ⁶.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi doirasida 2023-yil 5-oktabrdan boshlab "Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo viloyati filiali" davlat muassasasi sifatida faoliyat boshladi. Ushbu markaz Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi hamda Respublika ona va bola skrining markazi negizida tashkil etilib, yagona ixtisoslashgan tizimga aylantirildi. Qarorga muvofiq, mamlakat bo'yicha mazkur turdagi 14 ta hududiy filial tashkil etilishi belgilangan bo'lib, Qashqadaryo viloyati ushbu tizimni joriy etgan

⁶ <https://onabola-qf.uz/> Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo filiali haqidagi ma'lumotlar.

dastlabki hududlardan biri hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan markaz moddiy-texnik bazasi va tashkiliy tuzilmasi jihatidan zamonaviy tibbiyot muassasalariga qo‘yiladigan talablarga to‘liq javob beradi. Qariyb to‘rt gektar hududda barpo etilgan to‘rt qavatli majmua eng so‘nggi rusumdagi tibbiy uskunalar bilan jihozlangan bo‘lib, viloyat miqyosida ona va bola salomatligiga ixtisoslashgan yirik tibbiyot markazi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Markaz tarkibida 200 o‘rinli viloyat perinatal markazi, 200 o‘rinli shahar tug‘ruqxonasi, 50 qatnovli skrining markazi hamda 50 qatnovli reproduktiv salomatlik markazi yagona majmuaga birlashtirilgan. Bu tug‘ish yoshidagi va homilador ayollarga homiladorlik davri, tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi bosqichlarda uzluksiz hamda kompleks tibbiy xizmat ko‘rsatish imkonini yaratdi. Markaz to‘liq quvvat bilan ishga tushgach, bu yerda qariyb 1,5 ming nafar tibbiyot xodimining faoliyat yuritishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, mazkur markazda yiliga 8 ming nafardan ortiq patologik tug‘ruqlarni qabul qilish imkoniyati yaratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu onalar va chaqaloqlar o‘limi xavfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Markazda kam invaziv va laparoskopik jarrohlik amaliyotlari turlari kengaytirilib, tubektomiya, kistoektomiya, miomoektomiya va ventrofiksatsiya kabi zamonaviy operatsiyalarni amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan.

Muassasa faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hududdagi mahalla doyalari va birlamchi tibbiy bo‘g‘in bilan uzviy hamkorlikni ta‘minlashdan iborat. Xususan, markaz 860 dan ortiq mahalla doyalari bilan muntazam aloqada bo‘lib, yagona elektron ma‘lumotlar bazasi orqali viloyat hududidagi homilador ayollar va tug‘ish yoshidagi ayollar monitoringini amalga oshiradi. Shu orqali xavf omillari aniqlangan ayollar o‘z vaqtida tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilib, zarur hollarda ixtisoslashtirilgan yoki respublika darajasidagi muassasalarga yo‘naltiriladi ⁷.

⁷ <https://raqobat.gov.uz/uz/qarshi-shahrida-ona-va-bola-salomatligi-tibbiyot-markazi-barpo-etildi/> Qarshi shahrida Ona va bola salomatligi tibbiyot markazi barpo etildi.

Mazkur markaz faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi mustaqillik arafasida viloyatning arxiv hujjatlarida qayd etilgan perinatal yordam tizimidagi muammolarni bartaraf etish, homilador ayollar va chaqaloqlar salomatligini muhofaza qilishda tizimli va uzluksiz yondashuvni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, viloyat arxiv hujjatlari hamda akusher-ginekolog bilan o‘tkazilgan suhbat asosida shuni aytish mumkinki, mustaqillik arafasida onalar salomatligini muhofaza qilish tizimida mavjud bo‘lgan muammolar, xususan, kamqonlik, yetarli tibbiy nazoratning yo‘qligi va texnik imkoniyatlarning cheklanganligi tug‘ruq jarayonida og‘ir oqibatlarga olib kelgan. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu muammolarning ayrimlari mustaqillik yillarida ham saqlanib qolgan bo‘lsa-da, hozirgi davrda ularni erta aniqlash va oldini olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaygan. Zamonaviy tibbiy uskunalari, doimiy tibbiy kuzatuv va ixtisoslashtirilgan markazlar faoliyati homilador ayollar salomatligini yaxshiroq nazorat qilishga xizmat qilmoqda. Mustaqillik arafasida viloyatdagi holat va hozirgi jarayonlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda onalar salomatligini muhofaza qilish sohasida olib borilgan islohotlarning naqadar zarur bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi.